

ESTETIK IDEAL VA IJODKOR POETIK KONSEPSIYASI
(NAZAR ESHONQUL IJODI MISOLIDA)

Payziyeva Nilufar Zokir Qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada estetik ideal masalasi Nazar Eshonqul ijodi misolida atroflicha o‘rganilgan. Tahlil uchun adibning “Tobut” hamda “Xaroba shahar surati” hikoyalari tanlangan.

Kalit so‘zlar: Estetik ideal, g‘oya, Nazar Eshonqul, hikoya, sobiq sho‘ro tuzumi, “Tobut”, “Xaroba shahar surati”, mafkura, shaxs erki.

Adabiyot so‘z san’ati ekan, ushbu san’atning vazifasi insonlarga go‘zallik ulashish, hayotni badiiy bo‘yoqlarda aks ettirish hamda estetik zavq bera olishdir. Ijodkor o‘z ongida tafakkur qilgan dunyosini, o‘y-xayollarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida qayta voqelantirishga intiladi. “Estetik ideal – badiiy ijodga xos eng muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u ijodkorning xohishi, istagi asosida yotuvchi narsa yoki shaxsning qanday darajada bo‘lishini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, obrazning yozuvchi tasavvuridagi ko‘rinishi, uning konkret namoyon bo‘lishi estetik ideal tushunchasining mohiyatini belgilaydi. Bunda voqelik tarixiy zaruriyat qonuunlari asosidagina emas, balki go‘zallik qonuniylari nuqtayi nazaridan ham tasvirlanadi” Umuman olganda, estetik ideal tushunchasi bir masalaga turli yozuvchilarining turlicha yondoshishi, uslubi deb qaralsa ham bo‘ladi. O‘ziga xos uslubga, yo‘nalishga ega ijodkorlarimizdan biri Nazar Eshonquldир. Ushbu adib haqida gap ketsa, modernistik ijodkor sifatida tilga olinadi. Haqiqatan ham “Maymun yetaklagan odam”, “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, “Tobut” kabi hikoyalari zamonaviy jahon adabiyoti hikoyalarni eslatadi. Quyida adibning o‘ziga xos estetik ideali aks etgan va bir- biriga bog‘liq bo‘lgan bir necha hikoyalari borasida so‘z yuritamiz.

Nazar Eshonqulning asarlarida shunday umumiylit borki, bu ularning nomlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, tahlil qilmoqchi bo‘lganimiz adibning “Tobut” hamda “Xaroba shahar surati” hikoyalari. Hikoyalarning nomlanishi unga bo‘lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qiladi, bundan tashqari nimaga aynan shunday nomlanganini bilish uchun yana ham shiddat bilan o‘qishni talab qiladi. Bunday holatni har ikkala hikoyada kuzatishimiz mumkin: hikoya yakunidagina nomlanish sababi oydinlashadi. “Tobut” hikoyasida ham “Xaroba shahar surati” da ham bir umumiylitni uchratasiz: ikki hikoyada ham sobiq sho‘ro tuzumi, uning qonli siyosati izlari, odamlardagi befarqlik va loqaydlik kabilar ko‘zga tashlanadi. Bunda qo‘rquv, vahima, xavotir, o‘lim hukmron, bunda kulgu, ochiq chehralar ko‘rinmaydi. “Tobut” hikoyasidagi ilk jumla ham yuqoridagi fikrning isbotidir: “Noma’lum sabablarga ko‘ra o‘lim ko‘paygan chekka muzofotdagi olis shaharga ketayotgan tekshiruv guruhiiga nega aynan meni qo‘shib qo‘yishdi, me’morchilikning o‘latga qanday aloqasi bor (bizga hali sira aniqlanmagan o‘lat deb tushuntirishdi) to‘g‘risi, hozirgacha aqlim yetmaydi.”¹¹ Hikoyada bayonchilik uslubi yetakchilik qiladi. Hikoya qahramoni oddiy me’mor yigit bo‘lib, hatto o‘z kasbini tuzu-quruq bilmaydi. Uni o‘lat sababini o‘rganish uchun tuzilgan maxsus guruhga qo‘shib jo‘natishadi. O‘lat tarqagan shahar ahli shunday ediki, ularning tashqi ko‘rinishi-yu gap-so‘zlaridan ham taqdirga tan bergenliklari, o‘limga mahkumliklari, hamma narsaga loqaydliklari ko‘rinardi. Bu narsa hatto shahar boshlig‘ining nutqida ham namoyon bo‘ladi. Shahar ahlining bir xil qiyofasi, ularning yuzida aks etgan hasrat, g‘am, loqaydlik va qahr ular uchun kelajakka umid ro‘yoga aylanganidan darakdir. Adib bir o‘rinda shaharni ro‘yoga qiyoslaydi: “O‘zimni keyingi kunlarda ro‘yo hukmron bo‘lgan shaharga kelib qolgandek his etar va har bir ko‘rgan munozaram aql bovar qilmas narsalar bo‘lib tuyula boshlagandi: ehtimol, bular sahroda ro‘yo saltanatini qurishgandir?!¹² Darhaqiqat , bu ro‘yo, absurd sho‘ro diktaturasining, uning asli sarob, mag‘zi puch siyosatining aksi edi.

¹¹ Nazar Eshonqul. Tobut.(hikoya) www.ziyouz.com

¹² Nazar Eshonqul. Tobut. Hikoya. www.ziyouz.com.

Hikoyada telba me'mor obrazi bor, u doimo ko'chalarda izg'ib yurib shahar ahli o'limga mahkum ekanligini aytib yuradi. Dastlab hech kimning hayoliga kelmagan , hech kim ko'rmagan go'zal shahar qurishini aytadi, qurib bo'lgach esa o'z ustaxonasini yoqib yuboradi. Shaharni ham yoqmoqchi bo'ladiyu uni jinnixonaga jo'natishadi. Bu obrazni sobiq sho'ro tuzumi davrida quldek mafkuraga xizmat qilgan ammo keyinchalik uning mohiyatini anglagach zo'r berib undan voz kechishni talab qilgan shaxslarga qiyoslash mumkin. Tarixdan ma'lumki, haqiqatni talab qilgan yoxud tuzumning mohiyatini anglagan ziyolilar borki, qatag'onga uchragan. Adib telba me'mor obrazi orqali o'sha davrda faqat aqldan ozgan odamgina haqiqatni ayta olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shahar loyihasi bilan tanishib chiqqan me'mor hayratdan yoqa ushlaydi: shahar tobut shaklida qurilgan edi! Demak, rostan ham bu yerdagilar o'limga mahkum, bu yerda kezib yurgan badbo'y hid (sho'ro mafkurasi) ham ,tobut (sobiq sho'ro tuzumi) ham yakun dahshatli ekanidan dalolatdir. Tobut sho'ro tuzumining ramziy ifodasidir, ya'ni tobut-shahar ichidagilar tashqari dunyoni ko'ra olmaydilar, dunyo faqat shu tobutdan iborat deb hisoblaydilar. Ushbu hikoyani o'sha mash'um siyosatni tasvirlagan deb bemalol ayta olamiz.

Nazar Eshonqulning “Xaroba shahar surati” hikoyasi ham mohiyatan “Tobut” hikoyasiga o'xshab ketadi. Ushbu hikoyada murakkab psixologik tahlil ustunlik qiladi. Hikoya qahramoni bo'lgan yigit doim qayerdandir paydo bo'lib qolgan shahar surati haqida o'ylayveradi. Bu xayollar uni kun-u tun ta'qib qiladi, yaqinlariga aytsa uning ustidan kulishadi. Yigit esa baribir suratda aks etgan shahar mavjud bo'lganligiga ishonchini yo'qotmaydi. U kimga murojaat qilmasin uni telbaga chiqarishadi. Yigit shaharga o'zicha nom ham qo'yib olgan: Tursoriya. Bir qarashda shahar juda xunuk va palapartish tasvirlangan, doimo badbo'y hid (“Tobut” hikoyasida ham) anqir edi. Shaharda tiriklik alomati faqatgina eski tegirmon parragi edi: “ bu o'lik shaharga faqat shu parrakkina umid bag'ishlab turganday edi”¹³ . Hikoyadagi tasvir yo'sini, ifoda uslubi va ramzlar xuddi yuqoridagi hikoya singari

¹³ Nazar Eshonqul. Xaroba shahar surati. www.ziyouz.com.

butun mohiyati bilan sobiq tuzum mohiyatini ochishni ko‘zlagan: “istibdodning izlari kabi ko‘ngilga talvasa soladigan bu izlar shaharni boshdan oyoq zanjirlab qo‘ygandi. Bu kimning oyog‘ini izlari, qandayin yuragi tosh odam qoldirgan bu izlarni , ko‘zi tushganlarning ko‘ngillarida bir umr hilpirab tursin deya kim bu o‘lik shaharning ko‘chalariga vahm va qo‘rquv yalovlarini ilib chiqdi”¹⁴ . Surat yigitni ohanrabodek o‘ziga torta boshlaydi, hayotining mazmuniga aylanadi. U qanday bo‘lmisin bu suratdagi sirni ochishga, u haqida ma’lumot topishga intilardi, ammo hammasi besamar edi: “ Bir vaqtlar baxt va istiqbol yo‘lida hijrat etishlaridek men ham rangimning ruhsiz sanamlari, ma’bulular qalashib yotgan vodiysidan uvvilab yotgan, xuddi aqlu idrokning vayronasidek yuragim devorida osig‘liq turgan bu xaroba shaharni ertangi kunimni yaratganim kabi qayta tiklashim , to‘xtab qolgan tegirmon parragini yurdirib yuborishim kerak edi”¹⁵ Hikoya yakunida ayon bo‘ladiki, yo‘qolgan yigit o‘zligini izlab ketgan. Ya’ni, o‘scha mash’um tuzum kishanlari nafaqat davlatlarni balki, shaxs erki va ozodligini, uning ongu shuurini ham parchalagan , uni tiklash hali hanuz davom etmoqda.Muallif har ikki hikoyada ham qora bo‘yoqlar orqali sobiq tuzum qiyofasini chizadi. Xulosa qilib aytganda, Nazar Eshonqul hikoyalari masalaga turli rakurslardan qarash imkonini beradi, kitobxonni fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish.- T.2004
2. Xolmirzayeva Sh. Hikoya haqida. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati.1985
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. T.2006
4. Nazar Eshonqul. Tobut/Xaroba shahar surati hikoyalari. www.ziyouz.com

¹⁴ Nazar Eshonqul. Xaroba shahar surati. www.ziyouz.com

¹⁵ Nazar Eshonqul. Xaroba shahar surati. www.ziyouz.com